

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**AXMEDOVA SHOXISTA SAYDIYEVNA**

**OMON MATJON IJODIY LABORATORIYASINI O'RGANISH  
MUAMMOLARI (SHOIR SHAXSIY ARXIVI VA NASHRLARI ASOSIDA)**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Axmedova Shoxista Saydiyevna**

Omon Matjon ijodiy laboratoriyasini o‘rganish muammolari  
(shoir shaxsiy arxivi va nashrlari asosida) ..... 3

**Ахмедова Шахиста Сайдиевна**

Проблемы изучения творческой лаборатории Амона Матжона  
(на основе личного архива и публикаций поэта) ..... 25

**Akhmedova Shakhista Saidyevna**

Problems of studying the Omon Matjon creative laboratory  
(based on the poet's personal archive and publications) ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 53

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**AXMEDOVA SHOXISTA SAYDIYEVNA**

**OMON MATJON IJODIY LABORATORIYASINI O'RGANISH  
MUAMMOLARI (SHOIR SHAXSIY ARXIVI VA NASHRLARI ASOSIDA)**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3736 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasi (jdpu.uz)da va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali manzillariga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Kuchkarova Marxabo Xudayberganovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Umurova Go'zal Hotamovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Xurshida Xamroqulova Quvvatovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56; e-mail: jdpuinfo@umail.uz) Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o'quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya avtoreferati bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi 4. Tel.:(872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**U.A.Jumanazarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**F.E.Ibragimova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**U.Qosimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida bugungi kunda ijodkor shaxsi va uning ijodiy laboratoriyasini talqin etish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Adiblarning shaxsiy arxividagi qo‘lyozmalar, asarlarining bir nechta variantlari, qoramalar, kundalik qaydlar, xullas, jamiki shaxsiy hujjatlarini ommaga ma‘lum qilish ehtiyoji ortib bormoqda. Shu ma‘noda taniqli shoir va yozuvchilarning ijodiy laboratoriya sirlari, bir asar ustidagi mashaqqatli mehnati, tahrir san‘ati, badiiy asar biografiyasining ahamiyatini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida ijodkor laboratoriyasiga oid jihatlar, jumladan, ijod tabiati, ijodiy jarayon, ilhom, badiiy asar tarjimayi holi, ijodiy mehnat, yozuvchi dunyoqarashi kabi masalalar keng tadqiq etilmoqda. Xususan, ijodkor laboratoriyasining nazariy va amaliy jihatdan shakllanishi, uning ilmiy asoslari hamda badiiy asar biografiyasi masalasi Sharl Sent Byov va Andre Morua asarlarining mazmuniy-tahliliy yondashuvlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ijod psixologiyasini ochish maqsadida ijodkor shaxs va uning yaratig‘i sanalgan badiiy asar biografiyasini tadqiq etish zamonaviy adabiyotshunoslikdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda o‘zbek adabiyotshunosligi yangi sifat bosqichiga o‘tib, adiblarning uy-muzeylari va Adabiyot muzeyida saqlanayotgan noyob qo‘lyozma-hujjatlar asosida yirik monografik ishlar yaratilmoqda. “Ma‘naviy qadriyatlarimiz, adabiyot va san‘atimizni chuqur o‘rganish va ulardagi ibratli jihatlarni xalqimiz va ayniqsa, yoshlarimizni tarbiyalashga yo‘naltirish muhim vazifalardandir”<sup>1</sup>. Shu ma‘noda O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning farzandlari qo‘lida saqlanib qolgan shaxsiy arxivi asosida ijodkorning ijodiy laboratoriyasi, asarlarining qo‘lyozmalari, xatlari, telegrammalari, shaxsiy kutubxonasidagi kitoblari, audioyozuvlari, shoirning xalqona lirik she‘rlari, tarixiy dostonlari, nasriy sochmalari, badiiy tarjimalari shoir arxividagi qo‘lyozmalar bilan taqqoslanib, qiyoslar natijasida ijodkor laboratoriyasi sirlarini o‘rganish zarurati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish to‘g‘risida”, 2017-yil 18-apreldagi PQ-2894-son “Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘da Adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga taalluqli boshqa

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш-халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдевори. Президентнинг мамлакатимиз ижодкор зиёлилари билан учрашувидаги маърузаси. // Халқ сўзи. – Тошкент: 2017 йил 4 август.

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilishida ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyoga taniqli A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, A.P.Chexov, M.A.Gorkiy, S.A.Yesenin kabi rus ijodkorlarining shaxsiy arxivlari, umuman, ijodkor va ijodiy laboratoriyaga doir qator ilmiy-nazariy masalalar rus adabiyotshunoslari tomonidan o'rganilgan<sup>1</sup>.

O'zbek adabiyotshunosligida yirik olimlar tomonidan XX asr o'zbek adabiyotining atoqli shoir va yozuvchilarining ijodiy laboratoriyasi, poetikasi, badiiy-estetik tahlili, badiiy mahorati kabi ilmiy masalalar o'rganilib, yaxlit monografik tadqiqotlar yaratilgan<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Вересаев В. Живая жизнь О Достоевском Лье Толстом Апполони Дионис (о Ницше). – Москва: Издательство Политической литературы, 1991. – 33 с.; Смелковская М.Ю. Реальный факт и художественный вымысел в творчестве И.А.Бунина (на материале рассказов и повестей «Деревня» и «Суходол»): Дис... канд. филол. наук. – Елец, 2003. – 188 с.; Архангельская Т.Н. В творческой лаборатории Л.Н.Толстого: Источники; прообраз и образ; литературные связи: Дис... канд. филол. наук. Орел, 2004. – 267 с.; Биография и основные труды Л.Н.Толстого на сайте Научной педагогической электронной библиотеки. <https://elib.gnpbu.ru> «Сайт близких единомышленников Л.Н.Толстого». Работы толстовцев 1880-1986 гг.; <http://tolstoy-lit.ru/tolstoy/kritika-o-tolstom/rabota-tolstogo-nad-rukopisyami-voiny-i-mira.htm>; West, Anthony. H.G.Wells: Aspects of His Life – Random House, Incorporated, 1984. – 54 p; Herbert George Wells (1866–1946); // Bibliothèque nationale de France.; Толстой Л.Н. Поли. собр. соч.: В 90 т. Т. 48. С. 98.; Е.Э.Лейтнекер. 1) Рукописи А. П. Чехова. Описание. Соцэкгиз. – Москва: 1938, 129 с.; 2) Архив А. П. Чехова. Аннотированное описание писем к А. П. Чехову, вып. 1. Соцэкгиз. – Москва:1939, 116 с.; вып. II, Госполитиздат. – Москва: 1946. 96 с.; см. также: Е. Н. Коншина. Рукописное наследие А. П. Чехова в Государственной библиотеке СССР им. В. И. Ленина. В кн.: Чеховские чтения в Ялте. 1954. – Москва: Гос. библиотека СССР им. В. И. Ленин. – Москва: 1955. – С. 155-171; Рукописи, поступившие в 1954 г.; Чудакова М. Жизнеописание Михаила Булгакова. – Москва: Книга, 1988. – 64 с.

[www.litra.ru/composition/download/coid/00057801184864200205/](http://www.litra.ru/composition/download/coid/00057801184864200205/); <https://www.thefictiondesk.com/news/georgeorwell-anuscript-for-1984/>. Appropriating Hemingway: Using Him As a Fictional Character. – USA, 2015. – P.168-197. Zohn H. Franz Kafka and the Yiddish Theatre: Its Impact on His Work by Evelyn Torton Beck. – The Journal of English and Germanic Philology, Vol. 71, No. 1 (Jan., 1972), P. 87-89; Borie Ch. From Shrine to Stage: Inner Space and the Curtain in Jane Eyre // The Journal of the Brontë Society, 18 Jul 2013, P.107-116; *Peter Gahan*. Bernard Shaw and Beatrice Webb on Poverty and Equality in the Modern World, 1905–1914. – Cham: Springer, 2017. – P. 64-68. – 219 p.; Арасту. Поэтика. Ахлоки Кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2001. – 351 б; Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1986.; Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки. – Москва: Советский писатель, 1981.; Храпченко М. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Советский писатель, 1972.; Сент Бёв Ш. Литературные портреты. – Москва: Художественная литература, 1970.; Барахов В.С. Литературные портреты. – Ленинград: Наука, 1985. – 132 с.; Медведов П. В лаборатории писателя. – Ленинград: Ленинградское отделение, 1971.; Мейлах Б. Талант писателя и творческие процессы. – С.М.П., 1969; Мейлах Б. Психология художественного творчество предмет и пути исследования. – Л.: Наука, 1980; Парандовский Я. Сўз кимёси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022.; Паустовский К. Олтин гул. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 1967.; Цейтлин А. Труд писателя. – Москва: 1968.

<sup>2</sup> Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1969.; Азимов С. Абадият. 2-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.; Қўшжонов М. Қодирий – эрксизлик қурбони. – Тошкент: Фан, 1992.; Ўзбекининг ўзлиги. – Тошкент: Халқ мероси, 1992.; Норматов У. Қодирий мўъжизаси. – Тошкент: О'zbekiston, 2010.; Талант тарбияси. – Тошкент: Ёш гвардия, 1980.; Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2008.; Каримов Н. Илҳом чашмасининг ажойиб мавжлари. – Тошкент: Фан, 1982.; Чўлпон. Маърифий роман. – Тошкент: Шарқ, 2003.; Максуд Шайхзода. Маърифий-биографик роман. – Тошкент: Шарқ, 2010.; Миртемир. Маърифий-биографик роман. – Тошкент: Meriyus, –

O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon matbuotdagi ilk chiqishi bilan yirik adabiyotshunoslarning e’tiborini o‘ziga jalb etgan. Shoirning shu kunga qadar 30 ga yaqin she’riy to‘plamlari chop etilgan bo‘lib, uning ijodidan yapon, rus, turk, qoraqalpoq, qozoq va boshqa dunyo tillariga tarjima qilingan. Jumladan, O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Rahimjonov, J.Jumaboyeva, S.Meli, Q.Yo‘ldoshev, U.Hamdamiyev, B.Rahimova, O.Panayeva, M.Qo‘chqorova, M.Pirnazarova, D.Muhammadiyev va boshqalarning dissertatsion ishlari, adabiy portret, ilmiy maqola va taqriz, adabiy suhbatlarida Omon Matjon hayoti va ijodi o‘rganilgan<sup>1</sup>. 2023-yilda atoqli shoir Omon Matjon tavalludining 80 yilligi

2012.; Oйбек гулшанидан шабадалар. – Тошкент: Маънавият, 2015.; XX аср адабиёти манзаралари. – Toshkent: Ўзбекистон, 2008.; Зулфия. – Toshkent: Фафур Фулом, 2015.; Раҳимжонов Н. Бадий асар биографияси. – Toshkent: Фан, 2008.; Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадий услуб, автор услуби. – Тошкент: Фан, 1981.; Расулов А. Ҳозирги ўзбек танқидчилигида таҳлил ва талқин муаммоси (XX асрнинг 80–90-йиллари мисолида). Филол.фан. д-ри...дисс. – Тошкент: 2002.; Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Тошкент: Фан, 1969.; Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. – Тошкент: Фафур Фулом, 2016.; Болтабоев Ҳ. Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 1-жилд. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2013.; Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. Филол.фан. д-ри...дисс. – Тошкент: 1998.; Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси (кодирийшунослик мисолида). Филол.фан. д-ри...дисс. – Тошкент: 2002.; Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2008.; Umurov N. Adabiy ijod asoslari. – Samarqand: SamDU, 2019.; Қўчқоров Р. Мен билан мунозара қилсангиз. – Тошкент: Маънавият, 1997.; Тўлаганова С. Ижодкор шахсияти ва бадий қаҳрамон муаммоси: Филол.фан. д-ри...дисс. – Тошкент: 2019; Қўчқорова М. “Ўтмишдан эртақлар” тадқиқи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.; Абдулла Қаҳҳор ўзбек адабиётшунослиги кўзгусида. – Тошкент: Akademnashr, 2018.; Эркин Аъзам – сарказм устаси. – Тошкент: Фан, 2023. – 268 б.; Жўрабоев О. Матнинг матносни сирлари. – Тошкент: Tamaddun, 2017.; Зиёдуллаева Н. Ўзбек адабиётшунослигида ижодкор биографиясини ўрганиш муаммолари (Абдулла Қаҳҳор ҳаёти ва ижоди мисолида). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент: 2000.; Ядгарова М. Шухратнинг “Олтин зангламас” романи ижодий биографияси: тарихийлик ва бадийлик. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент: 2021. – 177 б.; Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.; Қаҳҳорова К. Чорак аср ҳамнафас. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987.; Саидносирова З. Ойбегим менинг. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020.; Холмирзаева С. Қайтмас дамлар. – Тошкент: Дизайн-пресс, 2013. – 128 б.; Мен отамнинг кизиман... – Тошкент: Адабиёт, 2023. – 192 б.; Воҳидова Г. Қалбим ардоғи. Ўзбекистон Қаҳрамони, Халқ шоири Эркин Воҳидов рафикаси наздида. – Тошкент: Машхур-пресс, 2020. – 176 б.; Отам ҳақида. – Тошкент: Таълим-медиа, 2019. – 128 б.

<sup>1</sup>Шарафиддинов О. Ҳақиқатга садоқат. Адабий-танқидий мақолалар – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.; Норматов У. “Ёниб, ўзгаларни уйғотмоқ не бахт!” (сўнгсўз) / Матжон О. Иймон ёғдуси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.; Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007. – 260 б.; Раҳимжонов Н. Бадийят – бош мезон. – Тошкент: Академнашр, 2016.; Жумабоева Ж. Омон Матжон. – Тошкент: Фан, 1993. – 152 б. Жумабоева Ж. Эл билса бўлди. – Тошкент: Istiqbol, 2018.; Жумабоева Ж. Ҳақиқат айтилган дамлар. – Тошкент: Istiqbol, 2022. – 287 б.; Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеърлятида психологик тасвир маҳорат. – Тошкент: Фан, 2004; Сувон Мели. Сўзу сўз (“Адабиёт фалсафасига чизгилар”) – Тошкент: Sharq, 2020.; Сувон Мели. Рух қушимиз омонмисиз? (Омон Матжоннинг “Қуш йўли” дoston ҳақида) // Халқ сўзи, 1993. 20 апрель; Сувон Мели. Талабим – кенглик (Омон Матжоннинг “Эркин ҳаволарда” шеърлий сайланмасига сўнгсўз) / Матжон О. Эркин ҳаволарда. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – Б. 356–362; Сувон Мели. “Ишқ зори изхори. Қўшиқ (Мирийга ўхшатма) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2023. №2. – В. 35–40; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006; Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърляти. – Тошкент: Академнашр, 2012; Раҳимова Б. Ўзбек адабиётида Паҳлавон Маҳмуд образи талқинлари. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент: 2007.; Панаева Ў. Ҳозирги ўзбек шеърлятида тарихийлик концепцияси. Филол.фан. номз...дисс. – Toshkent: 2005.; Қўчқорова М. “Ўзим ўз қалбимнинг бўлсам Колумби”. Шоир Омон Матжон билан суҳбат // Шарқ юлдузи. – Тошкент: 2013. №1. – Б. 44–51; Қоқарова М. Her Sefer, Her şiirimde, Her Kalp Atışında – Özüm, özüm Kalbimin Olsam Kolomb’u // Kardeş kalemler. – Türkiye. 2013. Şubat. Sayı. 74. – S. 77–83; Aman Matcan’ın ömür geçir vakit geçir kitabı hakkında düşünceler // Güncel sanat. – Türkiye. 2016. Sayı: 44. Eylül-ekim. – S. 72-73; Нозим Ҳикмат ва Омон Матжон лирикасида умуминсоний ғоялар талқини // X.Uluslararası Türk dünyasi Araştırmaları sempozyumu. Türkiye. Niğde 2022. 7–10. Haziran; Betakror shoir (Kirish so‘zi) / Turkiy adabiyot durdonalari. Omon Matjon. Saylanma. 28-jild. (nashrga to‘plab, tayyorlovchi: M.Qo‘chqorova, D.Matjonov) – Toshkent: Yangi O‘zbekiston, 2022; Қўчқорова М. Очиқ деразалар / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2023, 12 май. №18. – Б. 4.; “Ҳаққуш қичқирғи” дostonида мураккаб фольклоризм стилизацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2023. № 2. – Б. 22–25; Омон Матжон шеърлятида муҳаббат мавзуси / “Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари” мавзусида Республика III анъанавий илмий-амалий конференция материаллари. – Урганч:

munosabati bilan respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Masalan, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida "Omon Matjon ijodining yangi o'zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati" mavzusidagi konferensiyasi (2023-yil 24-mart), Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida "O'zbek filologiyasining dolzarb masalalari" mavzusida Respublika III an'anaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi (2023-yil 17-mart), Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida "Zamonaviy o'zbek she'riyatida Omon Matjon ijodining o'rni" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarining tashkil etilganini e'tirof etish joiz. Bu anjuman kunlarida taniqli olimlar va yosh tadqiqotchilar shoir hayoti va ijodi bo'yicha yangi ma'ruzalari bilan ijodkor hayoti va ijodini yoritishdi. Yil mobaynida davriy matbuot sahifalarida maqola va taqrizlar chop qilindi<sup>1</sup>. Omon Matjon hayoti va ijodi hamda asarlarini to'plab, nashr ettirishda adabiyotshunos Marhabo Qo'chqorovanning xizmatlari katta bo'ldi. Olima shoirning farzandi D.Matjonov bilan hamkorlikda "Turkiy adabiyotlar durdonalari"ning "Omon Matjon. Saylanma. 28-jild"ini hamda 2023-yilda shoir tavalludining 80 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi yetakchiligida Omon Matjon asarlarining "Tanlangan asarlar"ini nashrga to'plab, tayyorlashdi va bu kitoblar bosmadan chiqdi. Ammo shoir shaxsiy arxivi asosida ijodkor laboratoriyasi masalasi yaxlit monografik tarzda o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot ishi ana shu bo'shliqni to'ldiradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universitetining 2022-2027 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq "Adabiyotshunoslikdagi dolzarb masalalar hamda o'zbek adabiyotini zamonaviy usullarda o'qitish muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Omon Matjon shaxsiy arxivida saqlanayotgan qo'lyozmalar (asarlarining qoramalari, bloknot va daftarlardagi qaydlar, xatlar, telegrammalar), hujjatlar, audioyozuvlar, shaxsiy kutubxonasidagi kitoblar asosida ijodkor laboratoriyasi masalasini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

o'zbek adabiyotshunosligida Omon Matjon hayoti va ijodining o'rganilishiga qisqa ekskurs va shoir shaxsiy arxivini tasnifiy xarakteristikasini aniqlash;

---

2023, 17 mart. – Urganch: Xorazm e'shlari, 2023. – 276 b. – B. 13–19; "Ўтнинг алвон шиорлари, олов лаҳжаси..." / Омон Матжон. Танланган асарлар. – Тошкент: Адабиёт, 2023. – Б. 521–534; Xatlar – do'stona ijodiy aloqalar vositasi (Omon Matjon va Matnazar Abdulhakim) / "Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб масалалари" mavzusidagi xalqaro хотира илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: 2024, 31 май. – Б. 146–149; Pirnazarova M. Omon Matjon she'riyati badiiyati. Filol.fan. d-ri... (DSc) diss. – Toshkent: 2024. – 243 b.; Muhammadiyev D. Zamonaviy o'zbek she'riyatida metaforik tafakkur tabiati (Eshqobil Shukur va Abduvali Qutbiddin she'rlari asosida): Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. (PhD) avtoref. – Toshkent: 2024. – 137 b.

<sup>1</sup> Каримов Б. "Энди ул ой ҳажри ҳам аввалгиларга ўхшамас" / Янги Ўзбекистон, 2023. 15 февраль. № 31; Ҳамидова М. Унутилмас хотиралар / Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2023. 10 февраль, № 5; Исмоилов А. "Уйғон, эй, дил, дил вақтинг бўлди" / Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2023. 10 февраль. № 5; Қўчқорова М. Очик деразалар / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2023, 12 май. № 18.

shoir dostonlarining ijodiy biografiyasini qo‘lyozma, audioyozuv va nashr variantlariga ko‘ra taqqoslab, shoirning bir asar ustidagi ijodiy mehnati hamda “Quyosh soati” nasriy sochmasining ijodiy taqdiri, shuningdek, lirikasi mavzu ko‘lamini dallilash;

Omon Matjonning shaxsiy arxividan aniqlangan shu vaqtgacha birorta kitobida chop etilmagan “Ibn Sino Buxoroda” tarixiy dramasi va “Zulfiya” haqidagi librettosining badiiy xususiyatlarini tahlil qilish;

shoir arxivida saqlanib qolgan maktublar va telegrammalar vositasida adabiy jarayon manzarasi, ijodiy hamkorliklar, ustoz-shogirdlik munosabatlarini ochib berish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Omon Matjonning shaxsiy arxividagi qo‘lyozmalar (asarlarning qoramalari, daftarlar, bloknotlar, xatlar, telegrammalar, audioyozuvlar) hamda turli yillarda nashr qilingan “Ochiq derazalar”, “Haqqush qichqirig‘i”, “Seni yaxshi ko‘raman”, “Gaplashadigan vaqtlar”, “Ming bir yog‘du”, “O‘rtamizda birgina olma”, “Qush yo‘li”, “Iymon yog‘dusi”, “Erkin havolarda”, “Maqsudam”, “Tanlangan asarlar” kitoblari tanlab olindi.

**Tadqiqotning predmetini** Omon Matjon ijodiy laboratoriyasini o‘rganish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda biografik, qiyosiy-tipologik, germenevtik, tarixiy hamda analitik, shuningdek, qiyosiy-tekstologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘zbek adabiyotshunosligida shaxsiy arxivlar, xususan, ijodkor laboratoriyasi masalasiga tavsif hamda Omon Matjonning o‘g‘li Diyor Matjonning qo‘lida saqlanayotgan qo‘lyozmalar, qoramalar, shaxsiy hujjatlarga qisqa tasnif berilgan;

Omon Matjon shaxsiy arxividagi hujjatlar, qo‘lyozmalar yettita guruhga, jumladan, she‘riyati, dramaturgiyasi, tarjimalari, qayd daftarlari, nashr bo‘lmay qolgan asarlari, maktublar va telegrammalar hamda audioyozuvlarga ajratilgan;

shoirning “Ming bir yog‘du”, “Nega men?!”, “Haqqush qichqirig‘i”, “Qush yo‘li”, “Quyosh soati”, “Gaplashadigan vaqtlar” asarlarining qo‘lyozma, xomaki eskizlar, bosma nashr varianti qiyoslanib, badiiy asar yaratilish tarixi, lirikasining ijtimoiy, satirik, ishqiy, peyzaj she‘rlarining xususiyatlari ochib berilgan;

shoir shaxsiy arxividan aniqlangan “Ibn Sino Buxoroda”, “Zulfiya” librettosining qo‘lyozmalari, ularning tarixiy-sinxronik xususiyatlari hamda maktublar, telegrammalar germenevtik jihatdan izohlanib, bu hujjatlar orqali Omon Matjon adabiy fenomenining turkiy xalqlar adabiyotidagi takrorlanmas o‘rni, adabiy jarayon manzaralari dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Omon Matjon ijodkor laboratoriyasining o‘ziga xos xususiyatlari, shoir ijodining zamonaviy o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan ahamiyati yoritilgan;

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, hozirgi adabiy jarayon, istiqloq davri o‘zbek adabiyoti, adabiyot nazariyasi kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

ijodkor laboratoriyasini o'rganish muammolari bo'yicha mutaxassislarining ilmiy tafakkurini shakllantirishda hamda ijodkor shaxs va badiiy asar biografiyasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Omon Matjonning shaxsiy arxividagi qo'lyozmalar va asarlari nashr variantlarining qiyosiy, analitik, germenevtik, psixobiografik, statistik tahlil usuli asosida ilmiy tadqiq etilgani, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslangani, qo'lyozma va qoralama nusxalarining mavjudligi, nazariy qarashlarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shoir Omon Matjon ijodiy laboratoriyasini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar, nazariy qarashlar adabiy tanqidchilik, adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma'lumot va xulosalar berishi, mavjud darslik, qo'llanmalarining takomillashuvida yordamchi manba bo'lib xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya xulosalari hamda tavsiyalaridan oliy ta'lim tizimida, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs yoki seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, Omon Matjon hayoti va ijodi bo'yicha ma'ruza o'qishda, umumiy o'rta ta'lim hamda ixtisoslashtirilgan maktablarda o'qitiladigan adabiyot darslarida, shuningdek, mavzuga oid darslik, qo'llanma va risolalar yaratishda material bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Omon Matjon ijodiy laboratoriyasini o'rganish muammolari tadqiqi natijalari asosida:

o'zbek adabiyotshunosligida shaxsiy arxivlar, xususan, ijodkor laboratoriyasi masalasiga tavsif hamda Omon Matjonning o'g'li Diyor Matjonning qo'lida saqlanayotgan qo'lyozmalar, qoralamalar, shaxsiy hujjatlarga berilgan qisqa tasnif to'g'risidagi ma'lumotlardan 2017–2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 19-noyabr №540/2–son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha mavzusida doirasida nashr qilingan ishlarning ilmiy-nazariy manbalar bilan boyitilishiga erishilgan;

Omon Matjon shaxsiy arxividagi hujjatlar, qo'lyozmalar yettita guruhga, jumladan, she'riyati, dramaturgiyasi, tarjimalari, qayd daftarlari, nashr bo'lmay qolgan asarlari, maktublar va telegrammalar hamda audioyozuvlarga ajratilganligi haqidagi xulosalardan IL-402104474-raqamli “Bolalar adabiyoti.uz multimediali elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi loyiha ishini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 10-iyul №04/1-1805-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi fikr-mulohazalar bilan boyishiga erishilgan;

shoirning “Ming bir yog'du”, “Nega men?!”, “Haqqush qichqirig'i”, “Qush yo'li”, “Quyosh soati”, “Gaplashadigan vaqtlar” asarlarining qo'lyozma, xomaki

eskizlar, bosma nashr varianti qiyoslanib, badiiy asar yaratilish tarixi, lirikasining ijtimoiy, satirik, ishqiy, peyzaj she'rlarining xususiyatlari to'g'risidagi xulosalardan 2017–2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihagini amalga oshirishda foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 19-noyabr №540/2–son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning nazariy qismining yangi ilmiy manbalar bilan boyitilishiga erishilgan;

shoir shaxsiy arxividan aniqlangan “Ibn Sino Buxoroda”, “Zulfiya” librettosining qo'lyozmalari, ularning tarixiy-sinxronik xususiyatlari hamda maktublar, telegrammalar germeneytik jihatdan izohlanib, bu hujjatlar orqali Omon Matjon adabiy fenomenining turkiy xalqlar adabiyotidagi takrorlanmas o'rni, adabiy jarayon manzaralari xususidagi mulohazalardan Turkiya Respublikasining Artvin Choruh universiteti talabalariga Turkiy xalqlar adabiyoti fanini o'qitishda ma'ruzalar uchun asos bo'lgan (Artvin Choruh universitetining 2024-yil 25-iyuldagi E.5649-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur fan uchun tuzilgan ma'ruzalar matnining ilmiyligi oshishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika ilmiy nashrlarida 4 ta, shuningdek, xorijiy jurnallarda 5 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch bob tarkibidagi olti fasl, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 126 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**O'zbek adabiyotshunosligida Omon Matjon hayoti, ijodining o'rganilishi va shoir arxivi**” deb nomlanadi. U ikki fasldan tashkil topgan. Bobning ilk fasli “*Shoir hayoti va ijodining tadqiqiga ekskurs*” deb ataladi. O'zbek xalqining atoqli shoiri Omon Matjon (1943-yil 14-fevral – 2020-yil 29-oktabr) o'zidan lirik she'rlar, dramatik dostonlar, she'riy qissa, tragediya, nasriy sochmalar, badialar qoldirdi. Taniqli shoirning yangi o'zbek she'riyatiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Chunki Omon Matjon she'riyatiga singib ketgan badiiy falsafa, xalqona ohang, Xorazm koloriti, satira, ramziylik, ijtimoiylik

va sof ko'ngil unsurlari adabiyotshunos olimlar tomonidan qayta-qayta e'tirof etilgan. Shoir ijodidan ko'plab namunalar yapon, rus, turk, qozoq, qoraqalpoq va boshqa tillarga o'girilgan. Omon Matjon zamonaviy o'zbek she'riyatining muhtasham yirik shoirlari: Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi ijodi bilan yonma-yon turadi. Zero, o'zbek adabiyotshunoslari orasida bu to'rt (kvartet) shoirning yorqin iste'dodi va katta adabiyotga qo'shgan hissasi haqida afsonaviy gaplar yuradi. Omon Matjondan 30 dan ortiq she'riy to'plamlar, dramatik va ma'rifiy dostonlar, she'riy qissa, nasriy sochmalar, tragediya va badiialar meros qoldi. Shoirning "Ochiq derazalar", "Karvon qo'ng'irog'i", "Quyosh soati", "Yonayotgan daraxt", "Yarador chaqmoq", "Seni yaxshi ko'raman", "Daraxtlar va giyohlar", "Gaplashadigan vaqtlar", "O'rtamizda birgina olma", "Odamning soyasi quyoshga tushdi", "Qush yo'li", "Iymon yog'dusi", "Erkin havolarda", "Ardaxiva", "Xaloskor ruh. Xoja Ahror Valiy ziyoratlari", "Diydor aziz", "Umr o'tar, vaqt o'tar", "Ming bir yog'du. Ma'rifiy doston yoki "Xamsa"dan bitiklar", "Maqsudam", "Haqqush qichqirig'i", "Tanlangan asarlar" va boshqa she'riy to'plamlari chop etilgan.

Omon Matjon ijodi doimo adabiy tanqidchilikning diqqat-e'tiborida bo'lgan va shu jihatdan uning ijodini o'rganish, talqin va tadqiq etish shoir hayotlik davridayoq boshlangan edi. Bu borada Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, No'monjon Rahimjonov, Jumagul Jumaboyeva, Suvon Meli, Ulug'bek Hamdamov, Marhabo Qo'chqorova, O'g'iljon Panayeva, Manzura Pirnazarova, Munis Hakimov va boshqalarning bir qator tadqiqot, risola, maqolalari, dissertatsion ishlari, adabiy portret, ilmiy maqola va taqrizlarida samarali o'rganilgan.

Omon Matjonning 80 yilligi munosabati bilan shoirning eng sara she'rlari tanlab olinib, tarjimon va olim Xayrulla Hamidov tomonidan "Qadimiy ohanglar" sarlavhasi bilan turk tilida chop etildi<sup>1</sup>. Shunindek, shoirning yubileyi munosabati bilan biz shoir arxivida qo'lyozma sifatida saqlanib qolgan "Ibn Sino Buxoroda" tarixiy dramasini turk tiliga tarjima qilib, kam nusxada chop ettirdik<sup>2</sup>.

Shoirning birinchi she'riy to'plami 1970-yil "Ochiq derazalar" nomi bilan nashr etilgach, uni adabiy tanqidchilik iliq kutib oldi. Xalq orasida uning ijodiga nisbatan ulkan muhabbatni uning shaxsiy arxivida saqlanayotgan yuzlab maktub va telegrammalar ham isbot etadi. Masalan, 1971-yil 12-aprelda shoirning muxlisi O'.Allayorov tomonidan yo'llangan maktub mazmunidan buni anglash mumkin. Omon Matjonning 1977-yilda chop etilgan "Yonayotgan daraxt" she'rlar va dramatik doston to'plami yozuvchi H.G'ulomning "Parvozi baland she'riyat" nomli kirish maqolasi bilan chop etilgan<sup>3</sup>. U Omon Matjonning ilk she'rlarini 10-12 yildan beri kuzatib yurganligini, sovet armiyasi safida xizmat qilib yurgan paytida nashr etilgan she'rlarini ham o'qiganligini eslaydi. Adabiyotshunos U.Normatov shoirning 50 yillik yubileyiga bag'ishlab yozgan "Yonib o'zgalarni uyg'otmoq ne

<sup>1</sup> Aman Matcan. Kadim ahenkler. Seçme şiirler. (tercüman: Xayrulla Hamidov). – Taşkent, 2023. – 67 s.

<sup>2</sup> Omon Matcan. Ibn-i Sina Buhara'da. Edebi senaryo. (çevirmen: Sh.Axmedova) Bookmany print. – Taşkent, 2023. B. ). – 60 s.

<sup>3</sup> Ғулом Х. Парвози баланд шеърят / Матжон О. Ёнаётган дарахт. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1977. – Б. 3-4.

baxt” obzor maqolasida: “Omon Matjonni biz ko‘pincha she‘riyatda nuqul an‘anaviy yo‘llardan boruvchi ijodkor deb bilamiz. Darhaqiqat, shoirda an‘anaviylikka moyillik kuchli, u xalq og‘zaki ijodi tajribalariga, buyuk Navoiy dahosiga murojaat etib, ko‘p va xo‘b asarlar bitgan, XX asr o‘zbek she‘riyatining yaxshi tamoyillarini izchil davom ettirgan. Shu bilan barobar unda hozirgi jahon adabiyoti, san‘atidagi yangicha yo‘nalishlarga ham mehri, ishtiyoqi baland, taraqqiyparvar modernisti san‘at kashfiyotlari oldida lol qoladi, ko‘plar bu mo‘jizalar sehrini anglab yetolmayotganligidan afsuslanadi”<sup>1</sup>, – deydi. Olim ijodkorning ijodiy tamoyillarini, ya‘ni shoir she‘riyatidagi zamonaviylik, xalq og‘zaki ijodining ana‘analari, mumtoz she‘riyat ta‘siri va an‘analari, jahon she‘riyati va san‘atidagi ijodiy yangilanishlar sintezini aniq chizgilar bilan ajratib ko‘rsatgan.

Shuningdek, adabiyotshunos S.Meli shoirning hayoti va ijodi haqida “Ruh qushimiz omonmi? (O.Matjonning “Qush yo‘li” dostoni haqida)”, “Talabim – kenglik”, “Ishq zori izhori. Qo‘shiq (Miriya o‘xshatma)” maqola tadqiqotlarida “Qush yo‘li” dostoni (tugallanmagan), “Gaplashadigan vaqtlar” she‘riy qissasi, ijodiga umumiy obzor berilgan<sup>2</sup>. O.Matjonning hayoti va ijodini olima J.Jumaboyeva “ko‘p va xo‘b” o‘rgangan. Uning “Adabiy portret” turkumida e‘lon qilingan “Omon Matjon”, “XX asr o‘zbek she‘riyatida psixologik tasvir mahorati”, “El bilsa bo‘ldi”, “Haqiqat aytilgan damlar” kabi kitoblari otashnafas shoirning butun ijodini kashf etishga qaratilgan hamda ijodkorning turli janrdagi asarlarini g‘oyaviy, badiiy jihatdan tahlil va tadqiq etishga bag‘ishlangan<sup>3</sup>. Xulosa shuki, mazkur faslda atoqli shoir Omon Matjon hayoti va salkam oltmish yillik ijodiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarga qisqa obzor berilgan.

Mazkur bobning ikkinchi fasli “*Ijodkor shaxsiy arxividagi qo‘lyozmalar tasnifi*” deb ataladi. O‘zbek adabiyotshunosligida so‘nggi yillarda mashur adiblarning uy-muzeylarida saqlanayotgan arxiv materiallari asosida adiblarning arxiv kataloglari nashr etildi. Jumladan, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhorning arab yozuvidagi hujjatlar tavsifi kataloglashtirilib, adabiyotshunos O.Jo‘raboyev tomonidan “Abdulla Qahhor arxivi katalogi” chop etildi<sup>4</sup>. Shuningdek, G‘.G‘ulom uy-muzeyining xodimlari tomonidan ham “G‘afur G‘ulom arxivi katalogi” tayyorlandi. Adabiyotshunos olimlar ham ijodkor laboratoriyasi masalasini o‘rganishda adiblarning shaxsiy arxividagi qo‘lyozmalar, qoramalar, yondaftarlar, kundaliklar, xatlar, telegrammalar, shaxsiy hujjatlar asosida monografiyalar yaratishdi. Xususan, A.Qahhor, G‘.G‘ulom, M.Shayxzoda, Shuhrat

<sup>1</sup> Норматов У. “Ёниб, ўзгаларни уйғотмоқ не бахт!” (Омон Матжон шеърятига бир назар) / Матжон О. Иймон ёғдуси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – Б. 377.

<sup>2</sup> Сувон М. Рух қушимиз омонми? (Омон Матжоннинг “Қуш йўли” дostonи ҳақида) // Халқ сўзи, 1993. 20 апрель; Сувон Мели. Талабим – кенглик (Омон Матжоннинг “Эркин ҳаволарда” шеърӣ сайланмасига сўнгсўз) / Матжон О. Эркин ҳаволарда. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – Б. 356–362; Сувон Мели. Талабим – кенглик (Омон Матжоннинг “Эркин ҳаволарда” шеърӣ сайланмасига сўнгсўз) / Сўзу сўз (Адабиёт фалсафасига чизгилар) – Тошкент: Шарқ, 2020 – Б. 279-298.; Сувон Мели. “Ишқ изҳори. Қўшиқ (Мирӣяға ўхшатма)” // Ўзбек тили ва адабиёти, 2023. №2. – Б. 35-40.

<sup>3</sup> Жумабоева Ж. Омон Матжон. – Тошкент: Фан, 1993. – 90 б; Жумабоева Ж. ХХ аср ўзбек шеърятига психологик тасвир маҳорати. – Тошкент: Фан, 2004. – 67 б.; Жумабоева Ж. Эл билса бўлди. – Тошкент: Istiqlol, 2018. – 372 б.; Жумабоева Ж. Ҳақиқат айтилган дамлар. – Тошкент: Istiqlol, 2022. – 288 б.

<sup>4</sup> Абдулла Қаҳҳор архиви каталоги. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи О.Жўрабоев). – Тошкент: Мухаррир, 2011. – 136 б.

ijodiy laboratoriyasi R.Qo‘chqor, N.Ziyadullayeva, O.Jo‘raboyev, M.Qo‘chqorova, M.Yodgarova, J.Jovliyev kabilar tomonidan yangicha yo‘nalishda tadqiq qilindi.

Ijodiy laboratoriya ijodkor, ijod tabiati, ilhom, badiiy asar biografiyasi, ijodiy takomil, ijodiy g‘oya, ijod mashaqqati kabi ko‘plab masalalarni o‘z ichiga oladi. Ijodkor laboratoriyasining sir-asrorlari ijodkorlarning o‘zlari yaratgan esse va badialarida, shuningdek, zamondoshlar xotiralarida, umr yo‘ldoshi va farzandlari yozgan xotira kitoblarida ham ochiladi.

Omon Matjonning shaxsiy arxivi Toshkent shahri Olmazor tumani Qoraqamish dahasi Rohat mahallasida joylashgan uyida farzandlari qo‘lida saqlanadi. Odatda, ijodkorlarning vafotidan so‘ng ularning shaxsiy arxivi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyiga yoki “O‘zbekiston yozuvchilar arxivi” fondiga topshirilardi. Biroq Omon Matjonning shaxsiy arxivi hozircha hech bir davlat fondiga topshirilmadi. Uning barcha shaxsiy hujjatlari, kitoblari va qo‘lyozmalari farzandlari Diyor Matjonovga meros qoldirilgan. Ushbu shaxsiy arxiv boy va qimmatli qo‘lyozmalar, hujjatlar, xatlar, telegrammalar, otkritkalar, fotolar va turli kitoblardan iborat xazinadir. “Shoir arxividagi materiallarning hammasi daliliy hujjat hisoblanib, shoir hayoti va ijodining biror lavhasini, jonli xotirasini hozirgi yosh va kelajak avlodga tiklab beradi”<sup>1</sup>.

Shu o‘rinda aytish joizki, O.Matjonning ko‘p yillik izlanishlari, ijod yo‘li davomida ijodkor asarlarining bir necha qo‘lyozma variantlarining borligi uning shaxsiy arxivi paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Avvalo, ushbu qo‘lyozmalarining saqlanib qolishida shoirning turmush o‘rtog‘i M.Matjonovanning xizmati katta bo‘lgan. Shu bilan birga shoirdan qolgan bir parcha qog‘oz ham saqlanib, bugungi kungacha yetib kelishi, shubhasiz, shu inson tufayli amalga oshirilgan. Negaki bu yerdagi qo‘lyozmalar janr xususiyatlariga ko‘ra ajratilib, yillar kesimida, alohida papkalarga solinib taxlangan.

Omon Matjonning mazkur uy arxividagi qo‘lyozmalarni janr xususiyatidan kelib chiqib, quydagicha tasniflash mumkin:

- 1) she‘riyati (she‘rlari, dostonlari va she‘riy yo‘lda yozilgan manbalar);
- 2) dramaturgiyasi (dramatik asarlari, ssenariylari va dramatik turga oid manbalar);
- 3) tarjimalari (bunda shoir tomonidan qilingan tarjimalar hamda shoir she‘rlarining tarjimasi);
- 4) shoirning turli asarlari uchun to‘plangan material, kuzatish, badiiy topilma, qayd obrazlar, tarixiy siymolar haqida fakt ma‘lumotlar yig‘gan (al-Xorazmiy, Beruniy, Pahlavon Mahmud kabilar);
- 5) ijodkorning nashr bo‘lmay qolgan asarlari (“Ibn Sino Buxoroda” dramasi, “Zulfiya” haqidagi librettosi);
- 6) shoirga yozilgan turli maktublar va telegrammalar;
- 7) shoir deklamatsiyasidagi she‘rlar, ijodkor, jurnalistlar, tanqidchilar bilan qilgan adabiy suhbatlar, intervyular, audioyozuvlar (bunda Omon Matjonning “Youtube” ijtimoiy tarmoqlariga yuklangan turli suhbatlari kiradi).

---

<sup>1</sup> Jo‘raboyev O. Matnning matn osti sirlari. – Toshkent: Tamaddun, 2017. – B. 128.

Omon Matjon dramatik doston janrida barakali ijod qildi. Hayotining so‘nggi yillarida tragediya va badia janrida ham o‘z qalamini sinab ko‘rdi. Uning shaxsiy arxivida “Beruniy”, “Pahlavon Mahmud” (dramatik doston), “Najmiddin Kubro” (tarixiy fojia) kabi asarlarning qo‘lyozmalari mavjud bo‘lib, ular mashinkada terilgan, sarg‘ayib ketgan qog‘ozlarda o‘qishga yaroqli holda saqlangan. Ular orasidan “Beruniy” dostoni shoir tomonidan tuzatishlar va tahrirlar qilingan. Mazkur asarda ijodkor XI asr boshlarida Urganchda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy holatni buyuk o‘zbek allomasi Abu Rayhon Beruniy timsolida yoritgan. Shoirning shaxsiy arxivida saqlanib qolgan katta umumiy daftarga yozilgan yozuvchi qaydlari “Beruniy”, “Pahlavon Mahmud” dramatik dostonlari va “Najmiddin Kubro” tragediyasi uchun dastlabki ijodiy chizgilar, tarixiy davr va tarixiy shaxsni o‘rganish borasidagi muallifning ijodiy zahmatlari, arxaizm va istorizmlarga izohlar va sharhlar berilganligi ijodkor laboratoriyasidan darak beradi. Jumladan, umumiy daftardagi to‘qqiz sahifada yozilgan qaydlar ruchkada, kirill alifbosida Omon Matjon dastxati bilan bitilgan. Bu qaydlarni o‘qish mumkin, biroq muallifning shoshilinchda yozganligi sababli ko‘pgina harflar tushunarsizroq holatda va ko‘p so‘zlar qisqartirilgan shaklda yozilgan. Yondaftardagi qaydlardan misollar keltiramiz: “Манғишлоқ – Каспий – Аму= қад. ўзани

Айёр – разведкачи.

Дабир – шоҳ мирзоси.

Дарра ўйин – ичига қум, тош (ошиқ) тиқилган. Аёз билдирмай тенгдошини урган.

Даҳма – оташпарастрлар қўйимгоҳи.

Девоний Мушриф – хавфсизлик хизмати.

Динар – XII-XIV. X-зм пули. Олтини 2,4 гр.

Дехрам – кумуш.

Ерлар – вақфи авлодий, атоийи мулк”<sup>1</sup> va hakoza. Yondaftardagi qaydlardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Omon Matjon buyuk alloma va mutafakkir Abu Rayhon Beruniy haqida dramatik doston yozishdan oldin o‘zini ijodiy jarayonga tayyorlagan. Ya’ni ijodkor XI asr Xorazm tarixi, Beruniy yashagan tarixiy-ijtimoiy va ilmiy muhitni aks ettirish uchun Xiva xonligidagi pul birliklari, saroy lavozimlari, vaqf yerlar, o‘yin turlari, xullas, o‘sha davrni tavsiflovchi istorizmlar, arxaik so‘zlarga yondaftarda izohlar berilgan. XI asr tarixiy davrini to‘laqonli tasavvur etish uchun shoir Chingizxonning Xorazmga bosqinchilik tarixini chuqur o‘rganganligi yondaftardagi qaydlardan ma’lum bo‘ladi. Ushbu daftarda Najmiddin Kubro haqidagi qaydlar ham uchraydi. Omon Matjon Najmiddin Kubroning hayoti va ijodini, kubraviya tariqatinining asos tamoyillarini, avliyo yashagan tarixiy davr voqealarini tarixiy manbalardan o‘qib-o‘rganib, umumiy daftarga muhim faktlarni va sanalarni, tarixiy joy nomlarini qayd etib yozgan. Bu, shubhasiz, ijodiy tayyorgarlikdir. Ijodkorning kelgusida yaratilajak tarixiy mavzudagi asarlari uchun xamirturush vazifasini o‘tagan. Zero, “Asar rejasi yoki kompozitsiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra – yozuvchining mavzu, fon, personajlar, kayfiyat bilan, asarning

<sup>1</sup> Omon Matjon shaxsiy arxividan. Umumiy daftar. Daftar raqamlanmagan. (Izoh bizniki – A.Sh.)

emotsional uyg'unligi bilan birga yashashi, hamnafas bo'lishi, dunyoga kelayotgan asarni o'rab, chulg'ab olgan zim-ziyo zimistonning asta-sekin tarqalishidir"<sup>1</sup>. Shoir shaxsiy arxivida saqlanib qolgan daftarlardagi qaydlar, faktlar izohi ijodkorning badiiy asar ustida nechog'liq qattiq mehnat qilganligini yaqqol ko'rsatadi. Bunday shaxsiy hujjatlar va qo'lyozmalar ijodkorning badiiy asar biografiyasini ochib berishga yordam beradi. Shaxsiy arxivdagi bu turdagi muallif dastxati bilan yozilgan daftarlari va qo'lyozmalar Omon Matjonning ijodiy jarayon lahzalaridan xabar beradi. Bundan tashqari, mazkur faslda shoirning tarjimonlik faoliyatiga doir qo'lyozma va hujjatlar shaxsiy arxiv materiallari asosida ko'rib chiqildi, ayni paytda rus tarjimonlarining Omon Matjon she'riyatiga qiziqishi Y.Yevtushenko tarjimasidagi “Вспоминая Чарли Чаплина” she'ri asliyat bilan solishtirilib o'rganilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ijodiy laboratoriyani o'rganishda shaxsiy arxivdagi qo'lyozmalar va hujjatlarning ahamiyati**” deb nomlangan va ikki fasldan tarkib topgan. Ilk fasli “*Doston janridagi asarlarning badiiy takomili*” deb nomlanib, unda shoirning “Ming bir yog‘du”, “Haqqush qichqirig‘i”, “Nega men?!” va “Qush yo‘li” dostonlari qo'lyozma variantlari, jurnal va kitob variantlari taqqoslanib, Omon Matjonning badiiy asar matni ustidagi tahririy mehnatlari hamda badiiyatni mukammallashtirish yo‘lidagi ijodiy zahmatlari tahlil qilingan. Xususan, “Ming bir yog‘du” dostonining shaxsiy arxivda ikki qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, shoir bu dostonni ikki xil sarlavha bilan nomlagan. Masalan, dostonning birinchi qo'lyozmasi “Bir hovuch toza suv” nomi bilan nomlangan bo'lib, unda shoir “nur”, “yog‘du” so‘zlarini kamroq ishlatgan. Ikkinchi qo'lyozma nusxada esa shoir dostonning badiiyligini oshirish maqsadida uni “Ming bir yog‘du” deb o'zgartirib, “yog‘du” so‘ziga urg‘u bergan. Badiiy asarga nom berish ham nihoyatda muhim va mushkul ish hisoblanadi, chunki sarlavhada badiiy asardagi muhim asosiy g'oya aks etadi. Shunday qilib, “Ming bir yog‘du” ma'rifiy doston yoki “Xamsa”dan bitiklar nomi ostida 2017-yilda ushbu doston shoir tomonidan qayta ishlanib, turli tuzatishlar qilinib, qayta nashrdan chiqarildi. Dostonning 1989, 1997, 2017-yillardagi nashr variantlarini solishtirish jarayonida shoirning bir doston ustidagi ijodiy zahmati, tahrirlari, qayta ishlovlari, badiiyatni mukammallashtirishi namoyon bo'ldi. Quyida muallifning “Ming bir yog‘du” dostoni badiiy takomilini jadvaldagi misollar orqali kuzatamiz:

### 1-jadval.

“Ming bir yog‘du” (– T.: 1989) nashr varianti.	“Ming bir yog‘du” (– T.: 1997) nashr varianti.	“Ming bir yog‘du” (– T.: 2017) nashr varianti.
Kim <i>tushyapti</i> uni ko‘zimizga (5-b.)	Kim <i>tushyapti</i> uni ko‘zimizga (5-b.)	Kim <i>tushiryapti</i> uni ko‘zimizga (3-b.)
<b><i>Bir hikmat aytsa, qirq ma‘no chiqadi.</i></b> (13-b.)	<b><i>Bir hikmat aytsa, qirq ma‘no chiqadi.</i></b> (13-b.)	<b><i>Qirq ma‘no chiqadi bir hikmat aytsa,</i></b> (17-b.)
Adolat shohning ko‘ngliga <i>kirsagina</i> keyingina... (18-b.)	Adolat shohning ko‘ngliga <i>kirsagina</i> keyingina... (18-b.)	Adolat shohning ko‘ngliga <i>kirgandan</i> keyingina...(27-b.)

<sup>1</sup> Парандовский Я. Сўз кимёси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – Б. 351.

Jadvaldan ayon bo'lyaptiki, asarning 1989-yil va 1997-yildagi nashr variantlarida deyarli o'zgarish uchramaydi. Tuzatishlar, tahrirlar, yangi misralar qo'shish, so'zlarni almashtirish yoki so'zlarni tushirib qoldirish holati, asosan, dostonning 2017-yilgi nashr variantida kuzatiladi. Masalan, doston matnidagi 53 ta o'rinda yangi so'z ortish holati kuzatilgan bo'lsa, 24 ta eski so'z tushirilgan hamda 68 ta so'z boshqa sinonimiga, o'xshashiga, qofiyadoshiga almashtirilgan. So'zlardan tashqari, 13 ta yangi misra shoir tomonidan qo'shilgan va 10 misra she'r tahrir jarayonida tushirib qoldirilgan. Eng qiziq tomoni shundaki, "Yigitlik qudrati barq urgan shahzoda" nomli bob 1997-yilgi nashrga kiritilmay tushirilgan. "Mehmonnavozlik fani mirzasi" bobining sarlavhasi "Mehmonnavozlik qoidalarini yuksak tutuvchi" sarlavhasiga o'zgartirilgan.

Xuddi shuningdek, ijtimoiy davr muammosi haqqoniy va qo'rqmasdan yaratilgan shoirning "Nega men" dostonida yaqqol ko'rinadi. Doston 1986-yilda nashr etilgan, bu asar turg'unlik yillari haqida jiddiy ijtimoiy pafos bilan yozilgan.

Bu doston tarkibiga kirgan "Turg'unlik yillari" she'rini dastlab shoir bir yig'inda o'qiydi, lekin bu doston hali nashr yuzini ko'rmagan, tuzatish ishlari borligini aytib, baland ovozda, salobat bilan she'rni o'qiydi. Bu videotasvir shoirning "Telegram" ijtimoiy tarmog'idagi kanaliga joylangan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lgan. Natijada bu videotasvirda shoir deklamatsiyasi bilan o'qilgan she'r bilan to'plamda nashr bo'lgan doston varianti o'rtasida birmuncha tafovutlar borligi aniqlandi. Omon Matjon dostonni qayta ishlashi jarayonida yangi bandlar qo'shib, asarning badiiy-g'oyaviy jihatdan mukammallashtirishga erishadi:

*Buzib sarhadlarni, g'ovlarni olib,  
Bori dunyo bilan qilgil oshnolik,  
Yo'qsa, o'tmishing hech ko'rmay ro'shnolik,  
Kelajak bir joyni toptashga tushdi<sup>1</sup>.*

Omon Matjonning yana bir dostoni "Haqqush qichqirig'i" 1979-yilda yozilgan bo'lib, 40 ta afsona va 133 (qo'lyozmada 165) sahifani o'z ichiga oladi. Doston shu yilning o'zidayoq "Sharq yulduzi"<sup>2</sup> jurnalining 8-9-sonlarida ayrim qisqartirishlar bilan nashrdan chiqarilgan. Ushbu jurnalning 8-sonidan dostonning yarmi, ya'ni 10 ta afsonasi joy olgan, qolgan 9 ta afsona: "Xevoq afsonasi", "Ikki gul", "Kerakli narsalar va ularni izlash", "G'amxo'rlik yoki ikki chinor", "Ruhlar", "Muallaq to'rg'ay", "Komil Xorazmiyning Muhammad Rahimxon (Feruz)dan Rossiya bilan sulh tuzishni so'ragani", "Xum", "Eng so'nggi xazina" kabilari tushirilib qoldirilgan.

"Sharq yulduzi" jurnalining 9-sonida esa 12 ta afsona chop etiladi, lekin doston tarkibiga kirgan 8 ta: "Bir Xiva – ikki qal'a", "Qarg'a nega qora?", "Ajdar quduq", "G'alati orol", "Tun afsonasi", "Turnalarning ovozi", "Ishq va rashk", "Samandar" kabi afsonalar tushirib qoldirilgan.

<sup>1</sup> Matjon O. Ўртамизда биргина олма. – Тошкент: Fan, 1990. – Б. 348.

<sup>2</sup> [https://Sharq.yulduzi-1979\\_8.pdf](https://Sharq.yulduzi-1979_8.pdf) (ziyouz.com)

“Haqqush qichqirig‘i”ning qo‘lyozma, jurnal va kitob variantini solishtirib tadqiq etish natijasida, “Sharq yulduzi” jurnalida nega bu afsonalarning tushirib qoldirilganiga izoh beramiz. Jurnal variantda chop etilmagan afsonalar badiiy mohiyatida ozodlik, ilmga chaqiriq, mustamlaka zulmini anglatish, xalqning orzu-umidlarini amalga oshirish kabi isyonkor g‘oyalar bo‘rtib turadi. Afsonalarda kuylangan ijtimoiy g‘oyalar va shoirning estetik ideali sho‘ro davri mafkurasiga mos emas edi. Bizningcha, shuning uchun aynan shu afsonalar doston matnididan olib tashlanib, jurnalda chop etilmagan. Omon Matjonning “Qush yo‘li” dostoni yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham mazkur fasldan o‘rin olgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “*Badiiy asarning ijodiy taqdiri va biografiysi*” deb nomlanadi. Ushbu faslda O.Matjonning lirikasi mavzu jihatdan guruhlarga bo‘linib tahlil qilindi hamda ijodkorning “Quyosh soati”, “Gaplashadigan vaqtlar” she‘riy qissasining qo‘lyozma va bosma nashrlari qiyoslab, bir asar ustidagi mashaqqatlari ochiqlandi. XX asr o‘zbek adabiyotida o‘z lirik she‘rlari bilan minglab ko‘ngillarni shaydo qilgan Omon Matjon, avvalo, lirik shoir edi. Uning she‘rlarida sevgi, vafo, hijron, tabiat, tarix, zamon kabi bir qancha mavzular tarannum etilgan. Shu boisdan, shoir she‘riyatini mavzu jihatdan quyidagi guruhlarga tasniflash mumkin. Ijodkor she‘riyatini o‘rganishni osonlashtiradi.

1. Sevgi-muhabbat mavzusidagi she‘rlari (“Seni yaxshi ko‘raman”, “O‘rtamizda birgina olma”, “Sen ketursan izingdan”, “Eshigingdan o‘turman”, “Yaratganga shukr, yana sen kelding”, “Ochil, ey gul, vaqting bo‘ldi”, “Sog‘indim men seni”, “Men ishqimni aytolmasam o‘zingga”, “Boshqalardek sevishdik biz ham” kabilar);

2. Tarixiy-adabiy siymolar haqidagi she‘rlari (“Ko‘rdim Shukur Burhonni”, “Bu Mashrab, Mashrab”, “Oybek”, “Komiljon Otajonovni eslab”, “Nozim Hikmat zinalari”, “O‘n uchinchi eshik”, “Ogahiy g‘azaliga muxammas”, “G‘afur G‘ulom xotirasi”, “Bobur”);

3. Vatan va el-yurt mavzusidagi she‘rlari (“Ey, sirli diyor Xorazm”, “Bir Xiva ikki qal‘a”, “Muborak, yurtim, bu yog‘du”, “O‘zbek go‘zali”, “Qator-qator minor ko‘rdim Xivada”, “Xorazmcha”, “Vatan so‘zi”, “Vatan mehri”, Toshkent”, “Istiqlol sharafi” va boshqalar);

4. Satirik mavzudagi she‘rlari (“Eski o‘choq”, “Masal”, “Go‘dak fe‘lli do‘stimga”, “Aks- sado”, “Xafa xo‘roz”, “Uyquchilar mamlakatida” kabilar);

5. Tabiat mavzusidagi she‘rlari (“Kuz”, “Daraxtlar va giyohlar tarixi”, “Yonayotgan daraxt”, “Bu daraxt”, “Irmoq”, “Tabiatning qizil kitobiga”, “Manzara”, “Bahor arafasi” kabilar);

6. Ijtimoiy-falsafiy she‘rlari (“Ilohiylik xususida”, “Bir qadam olg‘a”, “Umr o‘tgan sayin”, “Sirlarim”, “Javob”, “Uchinchi daryo” va boshqalar);

7. Tarjimalari (“Zamin taqsimoti”, “Qo‘lqop”, “Oshiqlar bodasi”, “Siz tog‘larim”, “Yangidan yangi”);

8. Turli mavzudagi to‘rtliklari (“Tong otdi...”, “Yashash bu...”, “Birlik...”, “Sen meni yolg‘onchi deding...”, “Taning hech tinmasin...” va boshqalar).

Umuman olganda shoir, xilma-xil mavzularda barakali ijod etdi. Shu boisdan ham uning ta'sirchan, xalqona, samimiy she'riyati hali hamon xalqimiz qalbidan chuqur joy egallab kelmoqda. Ayniqsa, muallifning muhabbat mavzusidagi she'rlari son jihatdan ko'pchilikni tashkil qilib, hammasida bir-biriga o'xshamagan qiyoslar, ta'riflar, go'zal chizgilar, qalb kechinmalari mahorat bilan ifodalangan. Masalan, shoirning "Seni yaxshi ko'raman" she'ridan olingan parchada lirik qahramon yorini tushida ko'radi:

*Sen oppoq ko'ylakda qorasoch  
Tushimda ko'rinding yosh pari  
Va bor –yo'q xotirot olamim  
Chekindi ruhimdan tashqari.<sup>1</sup>  
Bu sensan, Muhabbat, tanidim,  
O'ylagan, kutganim, deganim.  
Lekin sen nahotki, bilmading,  
Bu – bir tush uyquda ekanim<sup>2</sup>.*

Shuningdek, shoirning "Quyosh soati" nasriy sochmalardan iborat bo'lgan kitobi 1970-yilda yozilgan bo'lib, u 1974-yil ko'p qisqartirishlar bilan nashrdan chiqariladi. Shaxsiy arxivda asarning ikkita qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, birinchisi tuzatishlarsiz nashrga tayyorlangan, ikkinchisi esa turli tuzatishlar, yangi qo'shishlar, misra va bandlar tushishi holati aks etgan. Asarning birinchi qo'lyozma nusxasi jami 85 sahifadan tashkil topgan bo'lib, u "Quyosh soati" asarining to'liq varianti sanaladi. Ikkinchi qoralama qismi esa 47 sahifani tashkil qiladi. 1974-yilda nashriyot talabi bilan muallif tomonidan qisqartirilgan. Ushbu asar davr senzurasida tufayli 38 sahifasi bosmadan chiqqan. Muallif qisqartirishlardan so'ng ham nashriyot xodimlari yana turli juz'iy qisqartirishlar qilgan<sup>3</sup>.

Umuman olganda, asarning uchdan bir qismi chop etilib, qolgan ikki qismi shoir shaxsiy arxivida qo'lyozma holatida, ijodkor tomonidan turli tuzatishlar, tahrirlar qilinib, qayta ishlangan shakli hozirgacha saqlanib qolgan. Nashriyot tomonidan chop qilinmay qolgan 68 ta nasriy sochma nima uchundir nashr yuzini ko'rmagan. Bizningcha, chop etilmay qolgan bu nasriy sochmalar sovet hukumatining mafkurasiga, senzurasiga, ularning g'oyalari zid bo'lgani uchun ham dunyo yuzini ko'rmagan: "Tinch okeani ichkarisida g'aroyib bir orol bor. Bu orolda yashovchi qushlar, kapalaklar, qo'ng'izlarning ko'pchiligi qanotsiz! Azaldan shunday tug'ilar ekan ular! Qanotning keragi ham yo'q ekan bu yerda! Chunki salgina balandlikda doim kuchli shamol esib turarkan-u, parvoz etmoqchi bo'lgan qushlar hashoratlarni okeanning cheksiz bo'shliqlari tomon surib ketar ekan. Bu – o'lim! (shoir "o'lim" so'zini tahrirlab qora qalamda "izsizlik" so'zi bilan almashtirgan). ...Orolda qanotli qushlar ham bor, lekin ular uchmoqni xayollariga ham keltirmaydilar"<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Matjon O. Seni yaxshi ko'raman / Matjon O. Iymon egdusi. – Toshkent: Faqur Gulom nomidaagi Adabiyet va san'at nashriyoti, 1995. – B. 217.

<sup>2</sup> O'sha manba.

<sup>3</sup> Matjon O. Quyosh soati. – Toshkent: Esh gvardiya. 1974. – B. 8.

<sup>4</sup> Omon Matjon shaxsiy arxividan. Quyosh soati parkasi.

Shuningdek, shoirning 1981-1982-yillarda yaratilgan “Gaplashadigan vaqtlar” she’riy qissasining ikkita qo‘lyozmasi shaxsiy arxivda borligi aniqlandi. Ularning har ikkalasi sariq papkaga solingan, mashinkada terilgan, o‘qishga yaroqli, sahifalari yirtilmagan. Birinchi qo‘lyozma nusxa jami 189 sahifadan iborat, ikkinchi qo‘lyozma nusxa 148 sahifadan iborat. Birinchi qo‘lyozma nusxa shoir dastxati bilan ba’zi sahifalar qalam, ba’zi sahifalar ruchka bilan tahrirlangan. Tahrir va tuzatishlar deyarli har bir sahifada uchraydi. Masalan, qo‘lyozmaning 154-sahifasining orqa tomoniga qalam bilan qo‘shimcha tarzda yozilgan quyidagi parcha kiritilgan: “*Shu dam eshik tez ochilib, xonaga kirgan cho‘girmali, po‘stin kiygan kimsani ko‘rib, bir seskandi, sal bo‘lmasa dod solayozdi.*”

*“Voy, Sizmisiz, Anvar aka...” – dedi so‘ng, tinib.*

*“Shu ahvolda bir ko‘chaga chiqsangiz bormi...” – kuldi Gulshan.*

*“Chiqsam nima, kim ham tanirdi. Mashhur bir zot bo‘lsaydimki, “ho, ho, qaranglar falonchining yurishiga!” deb qichqirsalar. Ming-minglarning bittasiman, qismati bir xil...”.*

*O‘rtaga tez jimlik tushdi.*

*Anvar so‘radi”<sup>1</sup>.*

Asarning birinchi qo‘lyozmasida mazkur parcha bo‘lmagan. Shoir uni qayta ishlash jarayonida tuzatish qilib kiritgan. Asarning bosma nashri ko‘zdan kechirilganda mazkur parcha she’riy qissaning 14-qismida oltinchi sahifasiga kiritilgan<sup>2</sup>.

Birinchi nashr variantida asarga ikkita epigraf tanlangan: “Semurg‘ aytdi: “Ruh erur shikorim...” Umidiy. Bu birinchi epigraf. Ikkinchisi: “Ko‘zi vaqti sahar sayyora bo‘lgan xalqni ko‘rdim... Mashrab.

Birinchi qo‘lyozma variantda Mashrabdan olingan bir misra yo‘q. Ikkinchi qo‘lyozmada esa epigraflar umuman keltirilmagan. Ammo she’riy qissaga muallifdan kitobxonga yozilgan yarim sahifa murojaati o‘rin olgan. Mazkur faslda shoirning dostonlari ustidagi ijodiy mehnatlari qo‘lyozma, jurnal, nashr variantlari o‘zaro taqqoslanib, tekstologik ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish natijasida Omon Matjon ijodiy laboratoriyasining shu kungacha noma‘lum qirralari adabiy jamoatchilikka taqdim etildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Omon Matjon asarlarining ijodiy biografiyasi”** deb nomlangan va u ikki fasldan tarkib topgan. Birinchi fasli *“Shoir arxividagi yangi qo‘lyozmalar: tarixiy va badiiy haqiqat”* deb nomlangan. Omon Matjon shaxsiy arxivi o‘rganilganida, shoirning hali shu paytgacha, ma‘lum sabablarga ko‘ra, hech qayerda chop etilmagan ikkita asarining qo‘lyozmasi aniqlandi. Bulardan biri “Ibn Sino Buxoroda” adabiy ssenariysi bo‘lsa, ikkinchisi “Zulfiya” librettosidir.

Shoir juda ko‘plab tarixiy shaxslarga bag‘ishlab drama, doston, nazmiy she’rlar hamda badialar yozgan va asosiy jihati o‘sha asarlarida tarixiy muhitni, davrni, zamon siyosatini real va to‘qima obrazlar orqali haqqoniy va real aks ettira olgan.

<sup>1</sup> Omon Matjon shaxsiy arxividan. Gaplashadigan vaqtlar. Birinchi papka.

<sup>2</sup> Matjon O. Gaplashadigan vaqtlar / Matjon O. Erkin xavolarida. Saylanma. – Toshkent: Faqur Fulom nomidaagi Adabiyet va san’at nashriyoti, 1997. – B. 270.

Xuddi shunday “Ibn Sino Buxoroda” adabiy ssenariysini yozishda ham olimning yashab o‘tgan diyorigini, u bilan zamondosh bo‘lgan shaxslarni, qurol-yarog‘, kiyim-kechak, oziq-ovqat, dorivor giyoh nomlarini va hatto ayrim holatlarda kishilar nutqida ishlatilgan so‘zlarni kartoteka qilgani shaxsiy arxivda saqlanayotgan materiallardan ma’lum bo‘ldi.

Bu asar Buxoroda tug‘ilib o‘sgan va dunyoga “Tib qonunlari” kitobi bilan tanilgan mashhur tabib Ibn Sino haqida yozilgan adabiy ssenariydir. Mazkur asar qo‘lyozmasi A4 format qog‘ozga mashinkada terilgan, jami 49 sahifadan iborat. O‘qishga yaroqli holda saqlangan. Bizningcha, Omon Matjon bu adabiy ssenariyni Ibn Sinoning yubileyi munosabati bilanmi yoki kinostudiya ijtimoiy buyurtmasi bilanmi, ekranlashtirilish uchun yozgan.

Ijodkor “Ibn Sino Buxoroda” dramasini yozish uchun, avvalo, o‘zini tayyorlagani ijodkorning shaxsiy kutubxonasidan joy olgan buyuk olimning “Tib qonunlari” kitobini o‘qib o‘rganganidan anglash mumkin. Chunki dramaturg Ibn Sinoning xalqona tabobat sirlari, kasallikka qarshi dorivor o‘simliklar nomini badiiy asarda to‘g‘ri aks ettirish uchun bu kitobni o‘qib chiqish zaruratini his etgan. Shoir Ibn Sino haqidagi mazkur qo‘lyozma shaklida chop etilmay adib arxivida qolib ketgan “Ibn Sino Buxoroda” asarini yaratish uchun “Tib qonunlari” va boshqa kitoblarni o‘qib, bilim to‘plagan. Dramada tabobat ilmi bilan bolaligidan qiziqqan, Buxoroning Afshona qishlog‘ida tug‘ilib o‘sgan, otasidan tabobat ilmini o‘rgangan Ibn Sinoning hayotiga doir bir nechta dramatik voqealar juda katta mahorat bilan aks ettirilgan. Shoir IX-X asrlarda Samarqand, Buxoro, Xorazm, G‘azna kabi shaharlarda bo‘layotgan voqealarni hamda Arab bosqinidan bir qadar o‘nglanib nisbatan tinchlik davrida yashab, gullab yashnay boshlagan O‘rta Osiyoning tarixini tasvirleydi. Bundan tashqari, dramada tashqaridan g‘oyat qudratli va farovon ko‘ringan ulkan Somoniylar saltanatining asta-sekin ichki nizolar tufayli inqirozga yuz tutishi ishonarli sahnalarda aks ettirilgan. Qolaversa, shoir Ibn Sinoning kasalliklarni davolab, turli tajribalar o‘tkazgani, amaldorlar bilan to‘qnashuvi sahnalarni jonli aks ettirish maqsadida olim haqida to‘qilgan xalq rivoyatlari va afsonalaridan unumli foydalangan. Mazkur faslda shoir shaxsiy arxividagi ikki asar qo‘lyozmasi aniqlanib, ularning badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari tahlil etilib, adabiy jamoatchilik e’tiboriga ilk bor tadqiq etilib havola qilindi.

Bobning ikkinchi fasli “*Maktublar va adabiy jarayon manzaralari*” deb nomlanadi. Xatlar qadimdan insonlar o‘rtasida aloqa vositasi bo‘lib, ular, asosan, kiborlar o‘rtasida faol muloqot darajasiga aylangan. Xatlar yig‘ilib hattoki, kitob shakliga keltirilgan (unga misol qilib Alisher Navoiyning “Munshaot” va Abdurahmon Jomiyning “Ruqaot” asarlarini sanash mumkin). Bu asarlar hozirgacha tarixchilar, etnograflar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar uchun muhim tarixiy-adabiy manba sifatida e’tirof etiladi.

Omon Matjon shaxsiy arxivida yuzdan ortiq maktublar, otkritkalar (tabriknomalar), telegrammalar ikkita sarg‘ayib ketgan papkada saqlanadi. Odatda, maktub janri ikki tomonlama amalga oshiriladi, lekin shoir arxivida saqlanayotgan xatlarning hammasi biryoqlama, ya’ni uning adresiga kelgan maktublarni tashkil

qiladi. Zero, shoir-yozuvchilarga yo‘llangan maktublarni mazmunan, uslubiy jihatdan o‘rganish hozirgi adabiy jarayon uchun nihoyatda qiziq mavzulardan biri hisoblanadi, chunki bu janr sifatida azaldan o‘zbek adabiyotida shakllanib kelgan.

Omon Matjon shaxsiy arxivida saqlanayotgan xatlar o‘qishga yaroqli bo‘lib, A4 formatli qog‘ozlarga, maktab daftarlarining varaqlariga yozilgan bo‘lib, o‘zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq tillarida yozilgan. Xususan, bu xatlar, shoirning qarindosh-urug‘lari, do‘stlari, muxlislari, shogirdlari, tahririyat a‘zolari, hokimiyat, nashriyotlar va shoir-yozuvchilar tomonidan yozilgan. Albatta, ularning orasida yozuvchi-shoirlar yozgan xatlar boshqa xatlardan farq qiladi. Bu maktublarni shu xususiyatiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘lish mumkin:

**1.Rasmiy xatlar** (Omon Matjonga yozuvchilar uyushmasidan, muzeydan, tahririyatdan, nashriyotlardan, maktab direktorlaridan, hokimiyatdan va turli mitinglardan kelgan maktublar).

**2.Telegramma, tabriknoma va taklifnomalar** (ular asosan bayram va to‘y, yubiley tadbirlari munosabati bilan yozilgan tabriknoma otkritkalar va to‘yga taklifnomalar, muhim uchrashuvlar, davra suhbatlari, kitoblariga dastxat so‘rash kabilar bo‘lib, juda ixcham, sodda so‘zlar bilan ifodalangan).

**3.Qarindosh-urug‘lari** yozgan xatlar (bunday xatlar shoirning otasi, ukalari, akasi, singlisi, uzoq amakilari, jiyanlari va boshqa og‘a-inilari tomonidan yozilgan bo‘lib, unda shoirdan, uning oila a‘zolaridan hol-ahvol so‘ralgan yoki bayramlar bilan tabriklashgan).

**4.Do‘stlari va shogirdlari tomonidan yozilgan xatlar** (shoira Qutlibeka Rahimboyeva, shoirlar Po‘lat Mo‘min, To‘ra Sulaymon, Matnazar Abdulhakim, Jo‘lmirza Aymirzayev kabildan kelgan xatlar).

**5.Muxlislari va boshqa insonlardan kelgan maktublar** (bu kabi xatlarda 10-sinf o‘quvchilari, talabalar, turli ijtimoiy sohadagi insonlar o‘zlarining va jamiyatdagi muammolarga yechim izlab xat yozishgan).

Umuman olganda, Omon Matjonga jami 50 dan oshiq xat kelgan bo‘lib, ular stilistik jihatdan unchalik murakkab tilda yozilgan emas. Maktublarning eng katta qismini telegrammalar tashkil qiladi, ularning soni 18 ta. Mazkur maktublarning ba‘zilarining yozilganiga 50-60 yil bo‘lgan, uni o‘qigan odamning ko‘z oldida jonli tarix, ya‘ni o‘sha davr manzaralari yorqin gavdalanadi. Saqlanayotgan xatlarning aksariyati o‘tgan asrning 70-90 yillarida yozilgan bo‘lib, shoir ijodining eng gullagan davriga to‘g‘ri keladi. Mazkur faslda To‘ra Sulaymon, Matnazar Abdulhakim, Qutlibeka Rahimboyeva hamda muxlislar maktublarining mazmunini ilk bor adabiy jamoatchilikka ma‘lum etilib, Omon Matjon va adabiy jarayon manzaralari yoritib berildi.

## XULOSA

1.Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida ijodkor laboratoriyasi bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish doimiy ravishda dolzarb va qiziqarli masalalardan hisoblanadi. Ayniqsa, so‘nggi davr zamonaviy adabiyotshunosligi mashhur

ijodkorlarning shaxsiy arxivlari asosida tamomila yangilangan tadqiqotlar yaratishdi.

2.O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon hayoti va ijodi adabiyotshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelgani va bu sohada O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Karimov, B.Sarimsoqov, S.Meli, J.Jumaboyeva, B.Karimov, U.Hamdami, M.Qo‘chqorova, M.Pirnazarova kabi o‘nlab olimlarning ilmiy tadqiqotlarida qaysidir darajada yoritilgani, ammo shu paytgacha ijodkor laboratoriyasi o‘rganilmaganligi asoslandi.

3.Shoirning farzandi D.Matjonov qo‘lida saqlanayotgan shaxsiy arxividagi qo‘lyozmalar, daftarlar, kitoblar, xatlar, telegrammalar, fotosuratlar hamda [t.me@OMONMATJON](https://t.me/OMONMATJON) telegram kanalidagi audio va videotasvirlarni yettita guruhga bo‘lib tasniflab, uning “Beruniy”, “Pahlavon Mahmud”, “Najmiddin Kubro” kabi tarixiy dramatik dostonlari hamda tragediyasining qo‘lyozmalari va davriy nashrlarini taqqoslab, bu asarlarning ijodiy biografiyasi dalillangan.

4.Muallifning shaxsiy arxivdagi barcha qo‘lyozmalar, hujjatlar, xatlar, telegrammalar, ijodkorga tegishli kitoblar ilk bor tasniflanib berildi, shuningdek, ijodkorning tarjimonlik faoliyati bilan bog‘liq qo‘lyozmalar, xususan, Y.Yevtushenko bilan adabiy aloqalari natijasida yuzaga kelgan tarjima ishlar tarixi aniqlangan.

5.Omon Matjonning “Ming bir yog‘du”, “Nega men?”, “Haqqush qichqirig‘i”, “Qush yo‘li” dostonlarining shoir shaxsiy arxivida saqlanayotgan qo‘lyozmalari, davriy va bosma nashrlari, shu bilan birga [t.me.@OMONMATJON](https://t.me/OMONMATJON) telegram kanaliga joylashtirilgan shoir deklamatsiyasi aks etgan videotasvirdagi she‘r matnlari bilan solishtirilib, tafovutlar topilib, badiiy asar tarjimayi holi asoslangan.

6.Shoirning ijodiy laboratoriyasini teran ochish maqsadida uning lirikasi shartli ravishda sakkiz guruhga bo‘linib, mashhur she‘rlarining badiiy-estetik tahlili amalga oshirildi; muallif shaxsiy arxivida saqlanib qolgan “Quyosh soati”, “Gaplashedigan vaqtlar” asarlarining qo‘lyozmalari bosma nashrlar bilan taqqoslanib, davr senzurasini tufayli chop etilmay qolgan parchalar aniqlanib, badiiy asarning ijodiy taqdiri va takomili dalillangan.

7. Omon Matjonning birorta kitobiga kirmagan ikki asarining qo‘lyozmalari, ya‘ni “Ibn Sino Buxoroda” tarixiy dramasi va “Zulfiya” librettosi aniqlanib, shoir ijodiy laboratoriyasining noma‘lum sahifalari ochiqlandi. Omon Matjonning tarixiy va adabiy shaxsiyatlar obrazini adabiy lashtirish borasidagi ijodiy mehnati kuzatildi, xususan, Ibn Sino obrazini yaratish uchun ijodkorning ijodiy tayyorgarligi (“Tib qonunlari” kitobining mutolaasi va tarixiy manbalarni o‘rganishi) hamda tarixiy dramaning badiiyati masalalari bilan daxldor ijodiy jarayon lahzalari asoslangan.

8.Ijodkorning O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya haqidagi “Sadoqat” librettosining badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari tahlil qilinib, ijodkor laboratoriyasining noyob qo‘lyozmalari adabiy jamoatchilikka ilk bor taqdim etildi hamda Omon Matjonning libretto janridagi ijodiy izlanishlari aniqlangan.

9.Omon Matjon shaxsiy arxividagi yuzlab xat va telegrammalar tasniflandi, shoirning o‘zbek va qardosh turkiy hamda Yevropa xalqlari o‘rtasidagi ijodiy mavqeyi, iste’dodi aniq hujjatlar (xatlar va telegrammalar) misolida dalillangan.

10.Xatlar papkasida J.Aymirzayev, T.Sulaymon, M.Abdulhakim, Q.Rahimboyeva, Q.Mirza kabi mashhur shoir-yozuvchilardan kelgan xatlar mazmuni berilib, Omon Matjon fenomeni va uning serqirra iste’dodi, yuksak badiiy mahorati xatlarda ta’kidlangani aniq hujjatlar asosida asoslangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ДЖИЗАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**АХМЕДОВА ШОХИСТА САЙДИЕВНА**

**ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ОМОН МАЖОН ТВОРЧЕСКАЯ  
ЛАБОРАТОРИЯ (ПО МАТЕРИАЛАМ ЛИЧНОГО АРХИВА И  
ПУБЛИКАЦИЙ ПОЭТА)**

**10.00.02 – Узбекская литература**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией с номером B2023.3.PhD/Fil3736.**

Диссертация выполнена в Джизакском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации размещен на веб-странице ([www.jdpu.uz](http://www.jdpu.uz)) Научного совета, а также в Информационном образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)).

**Научный руководитель:** **Кучкарова Мархабо Худайбергановна**  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Умурова Гузал Хотамовна**  
доктор филологических наук, профессор

**Хуршида Хамрокулова Кувватовна**  
доктор филологических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Ташкентский государственный университет  
узбекского языка и литературы**

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 по присуждению ученых степеней при Джизакском государственном педагогическом университете (Адрес: 130100, г.Джизак, проспект Шарофа Рашидова, 4. Тел.: (+99872) 226-13-57, 226-21-73, факс: (+99872) 226-46-56; e-mail: [jspu\\_info@utmail.uz](mailto:jspu_info@utmail.uz). Джизакский государственный педагогический университет, Главный учебный корпус, 2-этаж, малый зал заседаний).

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Джизакского государственного педагогического университета (зарегистрирован под номером \_\_\_\_\_). Адрес: 130100, г. Джизак, проспект Шарофа Рашидова, 4. Тел.: (+99872) 226-13-57, 226-21-73, факс: (99872) 226-46-56.

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(Протокол реестра рассылки \_\_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года).

**У.А.Жуманазаров**  
Председатель научного совета  
по присуждению ученых  
степеней, д.ф.н, профессор

**Ф.Э.Ибрагимова**  
Ученый секретарь научного  
совета по присуждению ученых  
степеней, к.ф.н., доцент

**У.Косимов**  
Председатель Научного семинара  
при научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.ф.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировом литературоведении в настоящее время ведется важная работа по интерпретации личности творца и его творческой лаборатории. Растет потребность в предоставлении публике рукописей, многочисленных версий произведений, черновиков, дневников и, короче говоря, всех личных документов из личных архивов писателей. В этом смысле все более важным становится выявление секретов творческой лаборатории известных поэтов и писателей, их кропотливой работы над произведением, искусства редактирования, значения биографии художественного произведения.

В мировом литературоведении широко изучаются аспекты, связанные с творческой лабораторией, включая природу творчества, творческий процесс, вдохновение, биографию художественного произведения, творчество, мировоззрение писателя. В частности, теоретическое и практическое становление творческой лаборатории, ее научные основы, проблема биографии произведения искусства неразрывно связаны с содержательно-аналитическими подходами трудов Шарля Сент-Бёва и Андре Моруа. Одной из актуальных проблем современного литературоведения является изучение биографии творческой личности и произведения искусства, считающегося ее творением, с целью раскрытия психологии творчества.

В новом Узбекистане узбекское литературоведение вступило в новый качественный этап, создаются крупные монографические труды на основе уникальных рукописей и документов, хранящихся в домах-музеях писателей и Музее литературы. «Одной из важных задач является глубокое изучение наших духовных ценностей, литературы и искусства и направление их поучительных аспектов на воспитание нашего народа, особенно нашей молодежи». В этом смысле на основе личного архива народного поэта Узбекистана Омона Матжона, сохранившегося в руках его детей, творческой лаборатории творца, рукописей его произведений, писем, телеграмм, книг из личной библиотеки, аудиозаписей, народных лирических поэм поэта, исторических эпосов, прозаических сочинений, художественных переводов были сопоставлены с рукописями в архиве поэта, и в результате сопоставлений возникла необходимость изучения тайн творческой лаборатории.

Указы Президента Республики Узбекистан от 12 сентября 2023 года № УФ-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030», от 21 октября 2019 года № УФ-5850 «О полномочиях узбекского языка как государственного» Язык и меры по коренному улучшению его положения» от 5 апреля 2018 года №ПП-3652 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Союза писателей Узбекистана», от 13 сентября 2017 года №ПП-3271-«О развитии системы издания и распространения книжной продукции, повышении и пропаганде культуры чтения и чтения», №ПП-2894-«О создании Национального парка имени Алишера Навои» от 18 апреля 2017 г. Создание Аллеи Писатели в

Данное исследование в определенной степени послужит реализации задач, изложенных в постановлениях и указах Правительства Республики Узбекистан «О защите прав и основных свобод человека», а также других нормативно-правовых документах, связанных с этой деятельностью.

**Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики.** Диссертация соответствует приоритетному направлению развития науки и техники республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии республики». Информационное общество и демократическое государство» Выполнено.

**Степень изученности проблемы.** Изучены<sup>1</sup> личные архивы всемирно известных русских писателей, таких как А.С.Пушкин, Л.Н.Толстой, А.П.Чехов, М.А.Горький, С.А.Есенин, а также ряд научно-теоретических вопросов, связанных с творчеством и творческой лабораторией в целом русскими литературоведами.

В узбекском литературоведении крупные ученые изучали<sup>2</sup> такие научные проблемы, как творческая лаборатория, поэтика, художественно-эстетический

---

<sup>1</sup> Вересаев В. Живая жизнь О Достоевском и Льве Толстом. – Москва: Издательство Политической литературы, 1991. – 33 с.; Смелковская М.Ю. Реальный факт и художественный вымысел в творчестве И.А.Бунина (на материале рассказов и повестей «Деревня» и «Суходол»): Дис... канд. филол. наук. – Елец, 2003. – 188 с.; Архангельская Т.Н. В творческой лаборатории Л.Н.Толстого: Источники, прообраз и образ, литературные связи: Дис... канд. филол. наук. Орел, 2004. – 267 с.; Биография и основные труды Л.Н.Толстого на сайте Научной педагогической электронной библиотеки. <https://elib.gnpbu.ru> «Сайт близких единомышленников Л.Н.Толстого». Работы толстовцев 1880-1986 гг.; <http://tolstoy-lit.ru/tolstoy/kritika-o-tolstom/rabota-tolstogo-nad-rukopisyami-voiny-i-mira.htm>; West, Anthony. H.G.Wells: Aspects of His Life – Random House, Incorporated, 1984. – 54 p; Herbert George Wells (1866–1946); // Bibliothèque nationale de France.; Толстой Л.Н. Поли. собр. соч.: В 90 т. Т. 48. С. 98.; Е.Э.Лейтнекер. 1) Рукописи А. П. Чехова. Описание. Соцэкгиз. – Москва: 1938, 129 с.; 2) Архив А. П. Чехова. Аннотированное описание писем к А. П. Чехову, вып. 1. Соцэкгиз. – Москва: 1939, 116 с.; вып. II, Госполитиздат. – Москва: 1946. 96 с.; см. также: Е. Н. Коншина. Рукописное наследие А. П. Чехова в Государственной библиотеке СССР им. В. И. Ленина. В кн.: Чеховские чтения в Ялте. 1954. – Москва: Гос. библиотека СССР им. В. И. Ленин. – Москва: 1955. – С. 155-171; Рукописи, поступившие в 1954 г.; Чудакова М. Жизнеописание Михаила Булгакова. – Москва: Книга, 1988. – 64 с.

